

**OVCHI O'LKASHUNOS IVAN FYODOROVICH LOMAYEVNING  
SURXONDARYODA DASTLAB TASHKIL ETILGAN MUZEY  
FAOLIYATINING RIVOJLANISHIGA  
QO'SHGAN HISSASI.**

**Pardayeva Shaxriniso Turayevna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim mudiri

**MAQOLA  
MA'LUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 19.11.2024

Revised: 20.11.2024

Accepted: 21.11.2024

**KALIT SO'ZLAR:**

*Yevropa, Termiz,  
muzey, ekspeditsiya,  
arxeolog, sayyoh, olim,  
tadqiqotchi, kutubxona,  
eksponat, obyekt, to'plam,  
kolleksiya, mamlakat,  
tarixiy jarayon, asr, asar,  
izlanish, tarix, hudud va  
hokozo.*

*Ushbu maqola muzeysunoslik ilmining dastlabki paydo bo'lish o'choqlari, O'zbekistonning janubiy darvozasi sanalgan Surxon zamini va uning markazi bo'lgan Termiz shahrida ham tashkil etilish sabablari va rivojlanishiga mahalliy o'lkashunos, ovchi Ivan Fyodorovich Lomayevning qo'shgan hissasi to'g'risida qisqacha yozildi.*

**KIRISH.** Muzeylar hamisha zamon bilan hamnafas bo'lib, ayniqsa, bugungi globallashuv davrida uning ahamiyati vaqt o'tgani sayin o'sib borayotgan maskanlardan biri hisoblanadi. Bevosita muzeylarning tarixiy muammolarni hal etishdagi, shu bilan birga mamlakatning kelajakdagi poydevorini mustahkamlashdagi o'rni beqiyos. Muzeylar tarixiy, moddiy, ma'naviy yodgorliklarni to'plovchi, saqlovchi, tahlil va targ'ib etuvchi ilmiy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, muzey-ko'p funksiyali, tarixiy jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi axborot institutidir. Ma'lumki, muzeysunoslik ilmi avval Yevropa mamlakatlarida paydo bo'lgan. Bu borada 15-16-asrlarda amalga oshirilgan buyuk geografik kashfiyotlarning ta'siri kuchli. Yevropaliklarning yangi hududlarda ko'rgan noyob buyumlari keyinchalik ularning katta qiziqishlariga sabab bo'ldi hamda ilm ahlini o'ziga jalb eta boshladi. 17-18 asrlarga kelib esa Italiya, Germaniya, Frantsiya va keyinchalik Rossiyada muzeyshunoslik ilmi rivojlandi. Mamlakatimiz tarixiga yuzlanganimizda bu borada dastlab rus sharqshunos olimlari qiziqa boshlaganligining guvohi bo'lamiz. Dastavval, rus tadqiqotchilar Markaziy Osiyoning qo'lyozma asarlarini yig'ishga kirishgan. Qimmatbaho asarlarning katta to'plamlari sobiq tuzum davrida

markazga yuborilar edi. Bu kabi masalalarni hal qilishda bir qator olimlarning harakatlari natijasida 1870-yil Markaziy Osiyoda yagona Turkiston Xalq kutubxonasi tashkil etilgan. Kutubxona musodara qilingan mahalliy aholi shaxsiy kutubxonalarini hisobiga yanada kengaytirilgan. 1876-yilga kelganda 2300 dan ortiq eksponatlariga ega dastlabki muzey “Turkiston Xalq muzeyi” tashkil qilingan. Bu muzeyning tashkil qilinishi mamlakatimizda muzeyshunoslik sohasi hamda ayniqsa, o’lkashunoslik ilmining rivojlanishida poydevor vazifasini bajargan. Shuningdek O’zbekistonning janubiy darvozasi sanalgan Surxon zamini va uning markazi bo’lgan Termiz shahri ham o’zining qadim tarixi, bebafo moddiy va ma’naviy madaniyati bilan vatanimiz tarixida muhim o’rin tutadigan maskanlardan biri sanaladi. Chunki ushbu mintaqaga insoniyat tarixining muhum makonlaridan biri sifatida qadim davrlardanoq insoniyatga beshik bo’lgan ilk tasviriy san’at, ilk yozuv, sun’iy sug’orishga asoslangan dehqonchilik xo’jaligi, mintaqadagi dastlabki shaharsozlik ana shu zaminda qaror topgan. Qolaversa, jahon dinlari sanalgan buddaviylik va islom dinining yuksalishida ham Surxon zaminining o’rni beqiyos.<sup>1</sup>

Tarix zarvaraqlariga yuzlanganimizda eski Termiz shahri azal-azaldan tarixchi, arxeolog va sayyoohlarning diqqat e’tiborini o’ziga tortib kelgan shaharlardan biri ekanligini guvohi bo’lamiz. Hududda bugungi kunga qadar ham ko’plab izlanishlar olib borilgan. Izlanishlar natijasida shu hududdan topilgan topilmalar vohamizda muzey tashkil qilinishiga turtki bo’ldi. Termizda muzey tashkil etilishining dastlabki harakatlari bundan ancha yillar oldin boshlangan. Izlanishlar natijasida topilgan dastlabki kolleksiyalari 1875-1879-yillarda Amudaryo bo’yidagi tarixiy yodgorliklardan topilgan. Bu tarixiy yodgorliklarning to’planishiga o’sha vaqtida N. A. Mayev boshchilik qilgan. Amudaryo bo’yidagi tarixiy yodgorliklardan topilgan buyumlar zabitlar uyiga to’planadi va u yerdan 2 xona ajratilib dastaval yopiq muzey tashkil qilinadi. Keyinchalik ma’lum vaqt topilayotgan buyumlar soni ortishi evaziga yopiq muzey ochiq muzeyga aylantiriladi. 1933-yil yoz oylarida Toshkentda o’tkazilgan yig’ilishda respublikamizning turli joylarida muzeylar tashkil qilish bo’yicha takliflar bo’ladi va shu o’rinda Termizda muzey tashkil etish takliflari maqullanadi.<sup>2</sup> Shu tariqa Termiz shahrida dastlabki muzey tashkil etilib unga G. V. Parfyonov rahbar etib tayinlanadi.

Muzey rahbari G. V. Parfyonov dastlabki ishini muzey xodimlari bilan birga hududlarni o’rganish, obodonlashtirish ishlari bilan davom ettiradi. Dastlabki hududni o’rganish ishlari Bobotog’ va Denov tumanlarida olib boriladi. Keyingi ishlari hudud bo’ylab davom etaveradi va Sherabod tumani Qizilolma qishlog’ida joylashgan Zarautsoyda olib boriladi. Ekspeditsiya olib borilayotgan o’sha yillari urush davriga to’g’ri kelib hamma ocharchilikdan qiynalayotgan davr edi, lekin shunday bo’lishiga qaramay ekspeditsiya ishlari davom ettirildi. Tashkil etilgan ekspeditsiya ishlarida ovchi o’lkashunos Ivan Fyodorovich Lomayevning o’rni beqiyos. Kuz oylarida tashkil etilgan ekspeditsiya qatnashchilarga ancha noqulayliklar keltirgan. Sherabodlik bo’lgan ovchi o’lkashunos Ivan

Fyodorovich Lomayev juda mehmondo'st inson bo'lgan. Ekspeditsiyaning dastlabki kunlaridayoq "Afg'on shamoli" ko'tarilib ekspeditsiya qatnashchilari ovchi o'lkashunos Ivan Fyodorovich Lomayevning uyida tunab qolishadi. Ertasiga havo yaxshilanib tayyorgarlik ko'rishi yana aravalarda yo'lga chiqishadi. Ovchi o'lkashunos Ivan Fyodorovich Lomayev ushbu ekspeditsiyada yo'lboshchi, himoyachi va yordamchi bo'lgan. Ekspeditsiya rahbari kelishi kechikib qolgan vaqtarda ham qatnashchilarga yo'l ko'rsatib ularga imkon qadar qulay sharoitlar yaratib bergen, so'qmoq yo'llarda harakatlanishga ko'maklashgan.<sup>3</sup> Urush yillarida ozuqa taqchilligi bois olib borilayotgan ekspeditsiya qatnashchilarini o'zi ovlagan hayvon go'shtlari evaziga to'yg'izgan. Ovchi o'lkashunos Ivan Fyodorovich Lomayev uchun har qanday hayvonni ovlay olish qiyinchilik tug'dirmas edi, u o'zi ovlagan yovvoyi cho'chqani bazaga olib borib oshpazlik ham qilgan. Zarautsoyga ekspeditsiya bir necha bor tashkil qilingan, o'sha davrlarda har bir tashkil qilingan ekspeditsiyada mahalliy o'lkashunos, yo'lboshchi, ovchi Ivan Fyodorovich Lomayevning mehnatlari beqiyos. Hozirda ham qoyatoshga olib boruvchi yo'llarda noqulayliklar bo'lib hududda yurish uchun moslashgan yengil mashinalarda va otulovlarda harakatlanish mumkin. Mahalliy o'lkashunos ovchi Ivan Fyodorovich Lomayevning muzey rivojlanishiga qo'shgan hissasi faqatgina Zarautsoy ekspeditsiyasi bilan bog'liq emas. Geolog K. V. Babkov bilan birgalikda 1936-1954-yillar davomida hududning Sherabod daryolari bo'yida, Jarqo'o'rg'on, Boysun, Bobotog' etaklarida ham qisqa muddatli ekspeditsiyalarda hamrohlik qilgan. Hozirda Surxondaryoda dastlab tashkil etilgan muzey negizida faoliyatini davom ettirayotgan "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi fondida ham Geolog K. V. Babkov hamda I. F. Lomayevlar tomonidan topilgan va o'rganilgan "Paleontologik" toshlar kolleksiyasi joy olgan.<sup>4</sup> Ushbu kolleksiya chig'anoq toshlar qotishmalaridan iborat bo'lib noyob toshlar ro'yxitiga kiritilgan. "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi ekspositsiya zallariga ham kolleksiya ashyolaridan namunalar qo'yilgan. "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi (Surxondaryoda ilk tashkil etilgan "Surxondaryo davlat tumanlararo muzeyi"ning hozirgi nomi) mamlakatimizdagi keksa madaniyat maskanlaridan biri bo'lib, bиринчи тоифали музей исобланади.

Muzey-qo'riqxona fondi 5 ta bo'limdan iborat.

1. Tabiat bo'limi
2. Fond bo'limi
3. Tasviriy san'at bo'limi
4. Tarix bo'limi va
5. Etnografiya bo'limlaridan iborat.


"Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-sun qaroriga asosan Surxondaryo tarixi va madaniyati davlat muzeyi negizida tashkil etilgan, shu qaror bilan Termiz tumanidagi Zurmola minorasi va eski Termiz (Chingiztepa), Sherobod tumanidagi Zarautsoy qoyatosh rasmlari, Jarqo'rg'on


tumanidagi Jarqo‘rg‘on minorasi, Sho‘rchi tumanidagi Dalvarzintepa, Muzrabot tumanidagi Kampirtepa (Oks Aleksandriyasi) madaniy meros obyektlari biriktirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sod qarorida keltirilgan Surxondaryo viloyatida joylashgan 21 ta moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 119-sonli Qarori bilan “Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi balansiga operativ boshqaruv huquqi asosida biriktirilgan.<sup>5</sup> Hozirgi kunda muzey-qo‘riqxona balansida 21 ta madaniy meros obyektlari mavjud bolib, shundan 14 tasi arxeologiya, 4 tasi arxitektura, 3 tasi diqqatga sazovor obyektlar hisoblanadi. Har bir obyektlarning o‘ziga xos maftunkor tabiat, tarixiy ahamiyati, diqqatga sazovor jihatlari bor. Muzey-qo‘riqxonamizga qiziqishi ortgan har bir vatandoshlarimizni tashrifini kutib qolamiz.

**“Termiz”                    davlat                    muzey-qo‘riqxonasi                    balansidagi  
madaniy meros obyektlari**

T/R	Obyekt nomi	Obyekt manzili	Obyekt foto-suratlari
	Machay g‘ori	Boysun tumani “O‘rta machay” mahallasi	 
	Teshiktosh g‘ori 2	Boysun tumani “Yuqori machay” mahallasi	 
	Teshiktosh g‘ori 2	Boysun tumani “Yuqori machay” mahallasi	 
	Teshiktosh g‘ori 2	Boysun tumani “Yuqori machay” mahallasi	 
	Said otaliq madrasasi	Denov tumani Bobur ko‘chasi	 

	Denov qal'asi	Denov tumani Bobur ko'chasi	
	Hayitobod tepa	Angor tumani	
	Jarqo'rg'on minorasi	Jarqo'rg'on tumani "Minor" mahallasi	
	Xo'jaipok ota	Oltinsoy tumani	
	Kampirtepa arxeologiya yodgorligi	Muzrabot tumani	
	Sopollitepa arxeologiya yodgorligi	Muzrabot tumani	
	Zarautsoy qoyatosh sur'atlari	Sherobod tumani	
	Jarqo'ton arxeologiya yodgorligi 2	Sherobod tumani "Kattabog"" mahallasi	
	Xo'jayikon tuz g'ori	Sherobod tumani "Chorbog"" mahallasi	
	O'rgebnuloq shifobaxsh suvi	Sherobod tumani "Uchyog'och" mahallasi	
	Eski Termiz arxeologiya yodgorligi	Termiz tumani "Qahramon" mahallasi	

	Qoratepa buddizm inshooti	Termiz tumani “Qahramon” mahallasi			
	Fayoztepa buddizm inshooti	Termiz tumani “Qahramon” mahallasi			
	Zo‘rmola minorasi	Termiz tumani “Namuna” mahallasi			
	Dalvarzintepa	Sho‘rchi tumani “Kushon” mahallasi			
	Arxeologlar bazasi	Termiz shahar “Yulduz” mahallasi			

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Saodat Inoyatova. Surxondaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi-moziy ko‘zgusi (lavhalar). “Surxon-Nashr” nashriyoti 2019-yil
2. I. T. Botirov. Surxondaryo viloyati O‘lkashunoslik muzeyi tarixi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent-2011
3. Abdulla Xolmirzayev. Zarautsoy tilsimlari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2003
4. Muzey-qo‘riqxonaning kirim kitoblari va hisobotlari
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-son qarori.
6. Abdulla Xolmirzayev. Termiz va Uzun orasi. Surxon nashr-2020. (qo‘sishimcha adabiyot)